



"TASDIQLAYMAN"
Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i
U. Elmuratov
2024-yil

Guliston shahar statistika bo'limi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Guliston shahar statistika bo'limining (keyingi o'rinlarda Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil etishni belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining (keyingi o'rinlarda Statistika agentligi deb ataladi) yagona tizimiga kiruvchi hududiy davlat statistika organi hisoblanadi va o'z faoliyatida Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasiga (keyingi o'rinlarda Boshqarma deb ataladi) bo'ysunadi.

Bo'lim mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildirlar va bevosita Statistika agentligi va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasiga bo'ysunadi.

Bo'lim boshqarmaning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim mahalliy davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning rasmiy statistika axborotiga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg'or statistika axboroti tizimining faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan davlat statistikasi sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisining normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga, Statistika agentligining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko'rsatmalariga, boshqarmaning buyruqlari va ko'rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini boshqa mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorlikda, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Statistika Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturiga asosan Statistika agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Shahar statistika bo'limi qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

8. Bo'lim Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, bo'limga kelib tushadigan va chiqib ketadigan hujjatlar va murojaatlarni ro'yxatga olish shtamplariga ega.

9. Bo'limning joylashgan manzili: Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, I. Karimov ko'chasi, 35-uy.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash;

xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish;

ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini Guliston shahar bo'yicha statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash;

Bo'limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas'uliyatini oshirish;

ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

11. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) davlat statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash borasida:

davlat statistikasi tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlaydi;

Bo'limning tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur choralarni ko'radi;

b) xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasini hamda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini joriy etish sohasida:

shaharda davlat statistika kuzatuvlari shakllarining joriy etilishini tashkil etadi, jumladan hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan davlat statistika hisoboti shakllari to'g'risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar beradi;

davlat statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini ta'minlaydi;

v) *ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:*

davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining bajarilishini ta'minlaydi;

shahar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat va hududiy dasturlarining bajarilishi yuzasidan Statistika agentligi tomonidan belgilangan davlat statistika kuzatuvlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, ro'yxatdan o'tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat'iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta'minlaydi;

statistika, hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini ta'minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishonchli davlat statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo'llanishini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarga Statistika agentligining axborot resurslaridan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi;

olingan statistika ma'lumotlarining mahfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq, Bo'lim faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini belgilangan tartib va muddatlarda boshqarma idoraviy arxivga taqdim etilishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida bo'lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

g) *davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini shahar bo'yicha statistika axborotlari bilan belgilangan tartibda ta'minlash sohasida:*

hududning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqa hududiy boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

barcha foydalanuvchilarga ochiq statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi;

shahar bo'yicha ma'lumotlar asosida mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) tahliliy materiallar keng namoyish qilish yo'li bilan statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralari ko'radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika axborotlari masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnoma asosida boshqarma nomidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot xizmatlarini va Davlat statistika ishlari dasturidagidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi;

d) Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish sohasida:

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrida tumanda joylashgan yuridik shaxslarni to'liq hisobga olishni va ular faoliyati holatidagi o'zgarishlarni monitoring qilishni ta'minlaydi;

ye) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash sohasida:

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta'minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini bo'lim faoliyatiga joriy etishda ishtirok etadi;

davlat statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat statistikasi axborot-hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'radi;

j) Bo'limning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlar mas'uliyatini oshirish sohasida:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida bo'lim ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

Bo'lim boshqarma bilan kelishgan holda kadrlarning malakasi oshirilishini va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta'minlaydi;

davlat statistikasi sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, ular bo'yicha qarorlar

qabul qilinishini va qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalriga javoblar yuborilishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan davlat statistikasi sohasidagi qonun hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarni, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralari amalga oshiradi.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

12. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

tuman hududidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) davlat statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

tuman hududidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan davlat statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

tuman hududidagi yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;

tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining davlat statistika kuzatuvlarini Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiya bo'yicha olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek rasmiy statistika axborotlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

barcha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan davlat statistikasi sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishini qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilish;

olinayotgan statistika ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini ekspertizadan o'tkazish;

davlat statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralari ko'rish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy jarimalardan tushumlar hisobiga Statistika agentligining maxsus jamg'armasini shakllantirishda ishtirok etish va undan belgilangan tartibda foydalanish;

shartnoma asosida boshqarma nomidan statistik, tahliliy, axborot xizmatlari va Davlat statistika ishlari dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rsatish.

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Bo'lim va uning mansabdor shaxslari ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Bo'limning mansabdor shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

14. Bo'lim xodimlari rasmiy sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistika ma'lumotlari, statistik axborotlar va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, berganlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

15. Bo'lim boshlig'i Statistika agentligi bilan kelishgan holda Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

16. Bo'lim boshlig'i:

bo'lim faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda bo'limni ifodalaydi;

bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

bo'lim xodimlarining majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

bo'lim xodimlarini Boshqarma tomonidan mukofotlash, rag'batlantirish, yuqori malakasi uchun ustamalar belgilash va ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash bo'yicha Boshqarmaga takliflar kiritadi;

bo'lim xodimlarini boshqarma bilan kelishgan holda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda ta'minlaydi;

bo'limga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonun hujjatlari doirasida zarur choralar ko'radi.

Boshliq qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

17. Bo'lim xodimlari Boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

5-bob. Bo'limning moliyalashtirilishi va moddiy-texnika ta'minoti

18. Bo'limning mol-mulkini boshqarma tomonidan foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek qiymati Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

19. Bo'limning moddiy-texnika ta'minoti Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bo'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish boshqarma tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

20. Bo'limni qayta tashkil etish, qo'shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasining 2024- yil
3- maydagi 18-ich- sonli
buyrug'iga 1- ilova**